



## ABDURAUF FITRATNING “O’GUT” SHE’RI VA UNING YOSHLARNI VATANGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

*Oqilov Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasi 4-kurs talabasi*

*E-mail: oqilovahrorjon@gmail.com*

*Sening uchun o‘lmoq — mening tirikligimdir...*

*Abdurauf Fitrat*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning millatni taraqqiy ettirishga qaratilgan va shu orqali yoshlarni vatanga muhabbat ruhida ulg’aytirish yo’lidagi chaqiriqlari bayon etiladi.

**Kalit so’zlar:** Abdurauf Fitrat, jadidchilik, Turkiston muxtoriyati, milliylik, tarbiya, vatanparvarlik, kosmopolitizm

### **Kirish**

Abdurauf Fitrat 1986-yilda Buxoroda savdogar oilasida tavallud topgan. Fitrat o‘z davridagi tuzumga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qaradi. Joriy hukumatning xato va kamchiliklarini ochiq bayon qildi. “Abdurauf Fitratning “Sayha” to‘plami 1911-yilda Istanbulda nashr etildi”<sup>1</sup>. Abdurauf Fitratning “Munozara” asari o‘z davri uchun bir momaqaldoqday aks sado berdi.

U o‘z davrining mashhur kishilari – Munavvarqori, Avloniy, Fayzulla Xo‘jayevlar bilan birgalikda bir safda turib jadidchilik harakatini keng yoyilishiga ulkan hissa qo‘shdi. Abdurauf Fitrat va Boshqa jadidlarning hatti-harakati natijasida 1917-yilning 27-noyabrida Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyati deb nom olgan yangi bir davlat tashkil topgani e’lon qilindi. Buni Abdurauf Fitrat turkistonliklar uchun “milliy laylatul-qadrimiz” deb atadi. Fitrat millatdoshlarida patriotizm-vatanparvarlikni kuchaytirish uchun ulkan say’i-harakatlarni amalga oshirdi.

### **Asosiy qism**

Abdurauf Fitrat faoliyatidagi badiiy va siyosiy asarlarining aksariyati vatanga muhabbat va el-yurt qayg’usiga yo‘g‘rilgan edi. Fitrat ham mamalakatdagi qashshoqlik, tengsizlik, ilm-fan, texnika sohasidagi qoloqlikdan qutulish yo’lini topish

<sup>1</sup> [IDEA OF PATRIOTISM IN THE WORK OF ABDURAUF FITRAT \(cyberleninka.ru\)](http://cyberleninka.ru)





uchun Qur'on va hadislarga rioya qilish lozim deb hisoblaydi". «Ulug' Turkiston» (1917, 2-son) ro'znomasida «Yashasin turklik, yashasin Islom» shiori bilan chiqadi<sup>2</sup>.

U faoliyati davomida mamlakatda uzoq yillar hukm surgan qoloqlik, mutaassiblik va johillikni yo'qotishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi hamda yoshlarni ham shu burch sari undadi. Fitratning "O'gut" she'ri bunga misol bo'la oladi:

\* \* \*

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda  
Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.  
O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda  
Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.

\* \* \*

Bu she'rning dastlabki misrasida bir yigit timosli orqali butun Turkiston ahliga xitob qilinadi. Misra davomida yigitga milliy ruh va o'zlikni anglash uchun ishoralar beradi. Odatda, yigitlarning ko'ziga nisbatan go'zal sifati qo'llanilmaydi. Fitrat esa bu orqali yurtga ishora qiladi. Uning go'zalligi yigitning ko'zida aks etganini uqtiradi. Shu bilan birgalikda bu ko'zda nur ortidagi vatanning porloq kelajagi-hurriyatning nuri ekanligiga ramziy belgi o'laroq yondashadi. Ikkinchi qatorda esa Fitrat yigitning ko'zidagi go'zal va kelajagi nurli o'lka bilan parallel ravishda millatning saodati va baxtini ko'rayotganligini ta'kidlash orqali millat yigitlarini hurriyat o'z qo'lida ekanligini aytadi. Keyingi misralarda esa jadidlar tomonidan qilingan ishlar samarasi sifatida millatning mard o'g'lonlarida yangicha dunyoqarash, oyoqqa turish kuzatilayotgani hamda bu barchanening holatida aks etayotganini bildirib o'tadi. Bu orqali esa ular ojiz emasligini, birlashib bir yoqa-dan bosh chiqarsa katta kuch ekanligini eslatadi. Huddi shu ishorani uning yelkadoshi Cho'lponning quyidagi she'riga bir tasdiq sifatida ko'rish mumkin:

\* \* \*

Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,  
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir.

\* \* \*

<sup>2</sup> [ABDURAUF FITRATNING MILLATGA "NAJOT YO'LI" NI KO'RSATGAN ASARI \(cyberleninka.ru\)](#)



Yana bu “Devoni hikmat”da kelgan tushunchalar bilan ham muvofiq bo’lib, unda insonparvarlik va insonlar o’rtasidagi munosabatlar ulardagi ikki tomonlama ishonch va halollikning targ’ibotiga yo‘naltirilgan<sup>3</sup>.

Birinchi misralar inson va millat-jamiyki turkiylarning o’zligi, asliga xitob va tasvir vazifasi orqali inson ruhiyatini ko’tarishga qaratiladi. Endi she’rning ikkinchi qismiga o’tsak:

\* \* \*

Turma - yugur, tinma - tirish, bukilma - yuksal,  
Hurkma - kirish, qo‘rqma - yopish, yo‘rilma - qo‘zg‘al!  
Yel yo‘lini to‘sib turgan eski bulutlarni  
Yondirib qo‘y, yirtib tashla, barchasin yo‘q et.  
Qilolmasang shu ishlarni,  
Sening uchun xo‘rlikdir bu...  
Yiqil, yo‘qol, ket!

\* \* \*

Ikkinchi qism boshidan Fitrat o‘ziga xos usul bilan keskin murojaat ta’bir joiz bo‘lsa buyruq qiladi. Yoshlarga vatan uchun harakatda bir joyda turmaslikni, millat uchun tin olmaslikni, hurriyat yo‘lida bukilmaslikni uning o‘rniga vatan uchun harakt qilishni, millat uchun tirishishni, erk-u ozodlik yo‘lida yuksak saviya kasb etishga chorlaydi. Ikkinchi misra esa uning ma’naviy davomi hisoblanadi. Xalqimizda ko‘z qo‘rroq qo‘l botir naqli bor. Fitrat ham shunga ishora qilib ish boshida cho‘chimaslikka, ertani o‘ylab qo‘rmaslikka, hayiqmaslikka undaydi. Yigitga ishga ertaroq harakat qilish, uni uddasidan chiqish uchun qo‘zg‘alish vaqt kelganini ortiq paysalga solish mumkin emasligini ta’kidlaydi. Fitrat bu misralar orqali Behbudiyning “Haq olinur berilmas!” xitobiga ilova qiladi. Fitratning g’oyatda ramzlarga boyligini she’rning uchinchi misrasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hurriyat kishiga yoqimli bir yel bo‘lib unga erishish uchun to‘sislarni yengish zarurligiga ishora qilinsa, hurriyat uchun mudom qat’iy turilmasa, u yel misoli qo‘ldan chiqishi mumkinligini ham ta’kidlaydi. So‘nggi misralar esa inson ongingin tub-tubigacha yetib boradigan so‘zlar bilan tugaydi. Yiqil, yo‘qol, ket..! Xalq shuncha imkoniyatlari bilan ham o‘z erkini, o‘z vatanini saqlab qololmas ekan unda u yo‘qlikka mahkum! Bu Fitratga xos jaydari, sodda biroq o‘ta ta’sirli she’riy usuldir.

<sup>3</sup> Bahromjon o‘g‘li O. A. Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asarida axloqiy tamoyillarning namoyon bo‘lishi //Ustozlar uchun. – 2023. – Т. 45. – №. 6. – С. 11-16.

## Xulosa

Abdurauf Fitrat bu she'ri orqali nafaqat o'z zamonasi balki o'zidan keyin kelajak avlodlar uchun ham vatanga muhabbat va sadoqatning bebaho ekanligini bildirib o'tdi. Unga berilgan hurlik, mustaqillik ne'mat ekanligini, uni qadriga yetish suv va havodek zarurligini uqtirdi.

Abdurauf Fitrat ijodi o'zidan oldingi mutafakkirlar Bedil, Ibn Xaldun va Zamaxshariy kabi insoniy munosabatlarga alohida urg'u beradi. Mahmud Zamaxshariy davr va ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda, jamiyat rivoji uchuno'rinli deb hisoblagan, kishilar ehtiyoj sezadigan ko'plab iqtiboslardan o'z asarida foydalangan<sup>4</sup>.

Bugungi tahlikali, har tomonlama shiddatli zamonda, insonlarda avj olayotgan kosmopolitizm ruhini ketkazish va uning mudrab yotgan vatan tuyg'usini uyg'otish uchun Fitrat asarlari chuqur o'rganilishi va o'rgatilishi lozim.

## Foydalangan adabiyotlar

1. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild. T.:Ma'naiyat-2000
2. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild. T.:Ma'naiyat-2000
3. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. III jild. T.:Ma'naiyat-2003
4. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. T.:Ma'naiyat-2006
5. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. V jild. T.:Ma'naiyat-2010
6. Idea of patriotism in the work of Abdurauf Fitrat
7. Abdurauf Fitratning millatga "Najot yo'li"ni ko'rsatgan asari ([cyberleninka.ru](http://cyberleninka.ru))
8. To'Reev L. A. O. G. L., Nizomova N. Q. MAHMUD ZAMAXSHARIYNING "RABI'AL-ABROR" ASARIDA IJTIMOIY, AXLOQIY VA FALSAFIY MASALALAR TALQINI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. Special Issue 2. – C. 266-273.
9. Bahromjon o'g'li O. A. Ahmad Yassaviyining "Devoni hikmat" asarida axloqiy tamoyillarning namoyon bo 'lishi //Ustozlar uchun. – 2023. – T. 45. – №. 6. – C. 11-16.

## Internet saytlari:

1. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
2. [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)
3. [www.tafakkur.net](http://www.tafakkur.net)

<sup>4</sup> To'Reev L. A. O. G. L., Nizomova N. Q. MAHMUD ZAMAXSHARIYNING "RABI'AL-ABROR" ASARIDA IJTIMOIY, AXLOQIY VA FALSAFIY MASALALAR TALQINI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. Special Issue 2. – C. 266-273